



O'RTA OSIYO DURDONASI – O'ZBEKISTON VA UNING TURIZM SALOHIYATI

Egamberdiyev Muzaffar

Ilmiy rahbar: Alfraganus University
Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)
20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Markaziy Osiyoning eng go'zal maskanlariga ega va navqiron davlati, chin ma'noda Markaziy Osiyoning tashrif qog'ozi - O'zbekiston va uning eng qadimiy shaharlari, mamlakatning turizm salohiyati va turizmning bevosita mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni haqida so'z boradi. Tabiiyki har bir davlatning eng muhim iqtisodiy tarmoqlaridan biri bu o'sha davlatning turizm salohiyati hamdir. Turizm bu faqatgina hordiq chiqarish uchungina sayohat emas, balki, mamlakatning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng muhim tayanchi va omilidir. Ha, demak turizm bir so'z bilan aytganda – Madaniy diplomatiyadir.*

Kalit so'zlar: *Turizm, ma'naviyat, madaniyat meros, tarix, sayyohlar.*

O'zbekiston – boy tarixiy meros, madaniyat va tabiiy go'zalliklar bilan ajralib turadigan mamlakat. Bugungi kunda O'zbekistonni dunyo sahnasida ko'tarilishida bevosita san'at, madaniyat va sport sohasining rivojlanishi va kengayayotgani sabab bo'lsa, bu yo'nalishlarning ajralmas qismi – turizm.

O'zbekistonda tarixiy obidalar talaygina, buni quyidagi shaharlardan ham bilib olsa bo'ladi;

1. Samarqand. Shahar tarixi deyarli 2750 yildan oshgan. Shahar bir qancha tarixiy-madaniy va ma'rifiy markazlarni o'z ichiga oladi, Qisqacha aytib o'tganda: Samarqand - Afrosiyob deb nomlangan qadimiy shaharning o'rnida qurilgan. Buyuk Aleksandr bu shaharga “Yer yuzining eng go'zal shahri” deb ta'rif bergan. **Amir Temur davrida imperiya poytaxti bo'lgan.**

• **Yodgorliklari:** Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim masjidi.



(1-rasm) **Registon Maydoni.**



(2-rasm) **Go'ri Amir**

2. Buxoro. Shaharning yoshi ham anchagina tarixiy davrni bosib o'tgan. Shahar **2500** yil oldin barpo qilingan. Shu bilan birga, Islom olamining muhim diniy va ilmiy markazi. Bu yerda **200** dan ortiq madrasa va masjidlar bo'lgan. **“Buxoro – shahrlar onasi”** deb nomlangan.

• **Yodgorliklari:** Kalyan minarasi, Mir Arab madrasasi, Ark qal'asi, Ismoil Somoniy maqbarasi.



(4-rasm) **Buxoro arki**



3. Xiva. Shahar tarixi **2500** yil atrofida. Qisqacha: Xorazm viloyatidagi qadimiy shahar. XIX asrda Xiva xonligining poytaxti bo'lgan. Ichon-Qal'a (ichki shahar) to'liq saqlanib qolgan tarixiy shahardir.

• **Yodgorliklari:** Ichon-Qal'a, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta Minor minorasi, Tosh hovli saroyi.



5-rasm) **Ichon qal'a**



(6-rasm) **Tosh hovli saroyi**

4. **Qo‘qon.** Qo‘qon - Farg‘ona vodiysining gavharidir. Shahar **2300** yilga yaqin tarixga ega. Farg‘ona vodiysining markaziy shahri. **XVIII–XIX** asrlarda Qo‘qon xonligi poytaxti bo‘lgan.

- **Yodgorliklari:** Xudoyorxon saroyi, Norbutabiy madrasasi, Jome masjidi.



(7-rasm) **Qo‘qon xoni Xudoyorxon o‘rdasi (ya’ni saroyi)**

Mamlakatimizda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar **UNESCO** merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘zbekistonning turizm sohasi 2017-yildan buyon jadal rivojlanib, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Quyida 2017–2023 yillar oralig‘ida erishilgan asosiy yutuqlar va o‘shish ko‘rsatkichlari keltirilgan:

Xorijiy turistlar oqimi

- 2017-yil: **2,7** million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgan.
- 2022-yil: **5,2** million nafar sayyoh (2017-yilga nisbatan **92%** o‘shish).
- 2023-yil: **6,6** milliondan ortiq sayyoh kelgan, bu 2022-yilga nisbatan **26,6%** ko‘p.

Turizm infratuzilmasi

• Mehmon o‘rinlari: 2017-yildagi 37 ming o‘rindan 2023-yilda 128 ming o‘ringa yetdi (3,4 barobar o‘shish).

• Joylashtirish vositalari: 2017-yildagi 767 tadan 2023-yilda 5 477 taga ko‘paydi.

Turizm xizmatlari eksporti

- 2017-yil: **\$546,9** million.
- 2022-yil: **\$1,6** milliard (2,9 barobar o‘shish).
- 2023-yil: **\$2,1** milliardga yaqin daromad keltirdi.

Ichki turizm ko‘rsatkichlari ham iqtisodiyotning muhim omillaridan biridir.

- 2017-yil: **7,2** million mahalliy sayyoh.
- 2023-yil: **14,9** million mahalliy sayyoh, bu 2017-yilga nisbatan 107% o‘shishdir.

Quyidagi grafik O‘zbekiston turizm sohasidagi o‘shishni yanada aniqroq tasvirlaydi:



Yil	Xorijiy turistlar soni (mln)
2017	2,7
2018	5,3
2019	6,7
2020	1,5
2021	1,9
2022	5,2
2023	6,6

Mamlakatimiz rivojlanishi va turizmning yana ham salmog‘ini oshirish uchun Investitsiyalar va loyihalar muhim tamal tosh vazifasini o‘taydi.

Quyida ularning umum holatdagi ko‘rsatkichlarini ko‘rishingiz mumkin:

- 2021-yil: **11,4** trillion so‘mlik **495** ta loyiha amalga oshirildi.
- 2022-yil: **22,1** trillion so‘mlik **735** ta loyiha ishga tushirildi, **23** mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Navbatdagi qulaylik bu - viza rejimi soddalashtirilishi

- Vizasiz kirish: 93 davlat fuqarolari uchun.
- Elektron viza: 56 davlat uchun.
- Boshqa yangiliklar esa: 47 davlat uchun 5 kunlik tranzit visasiz kirish, 76 davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi joriy etildi.

O‘zbekiston O‘rta Osiyoda quyidagi jihatlar bilan turizm sohasida yetakchilik qiladi:

1. Geosiyosiy markaziylik:

- Mintaqaning markazida joylashgan, barcha O‘rta Osiyo davlatlariga chiqish imkoniyati mavjud.

2. Tarixiy obidalar soni va sifati:

- O‘zbekiston obidalar va tarixiy manbalar bo‘yicha Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikistonga nisbatan ancha boy.

3. Sayyohlar oqimi:

- 2024 yilda O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni 6 milliondan oshdi.

4. Viza soddalashtirilishi:

- 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun visasiz rejim joriy qilingan.

5. Turizm vazirligining faoliyati:

- “Uzbekistan.travel” platformasi, xalqaro yarmarkalarda qatnashish, turizmni raqamlashtirish va xizmat sifatini oshirish.

6. Brendlashtirish:

- “Silk Road” (Ipak yo‘li) brendi ostida sayyohlik targ‘iboti, O‘zbekistonning madaniy meros festivallari.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O‘zbekiston turizmida O‘rta Osiyodagi boshqa davlatlarga qaraganda madaniy-tarixiy boylik, xalqaro targ‘ibot, raqobatbardosh xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ustunlikka ega. O‘zbekiston 2030-yilgacha xorijiy sayyohlar sonini 15 millionga yetkazishni maqsad qilgan. Bu borada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi yo‘nalishlar ochish va xizmatlar sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gazeta.uz (2024). O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 6,6 milliondan oshdi. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/>
2. Spot.uz (2023). O'zbekistonda turizm rivojlanishi: 2017-2023-yillar tahlili. URL: <https://www.spot.uz/oz/2023/02/20/tourism-development/>
3. Zamin.uz (2023). O'zbekiston turizm sohasi 2017–2023 yillarda: islohotlar va natijalar. URL: <https://zamin.uz/uz/jamiyat/122626-ozbekistonda-turizm-sohasi-20172023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi.html>
4. Kun.uz (2024). O'zbekiston 2023 yilda turizm eksportidan 2,1 milliard dollar daromad oldi. URL: <https://kun.uz/83114930>
5. Kun.uz (2024). Turistlar uchun vizasiz kirish tartibi – qancha davlatga ochiqlik bor? URL: <https://kun.uz/97072854>